



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAXSUS VA INKLYUZIV
TA‘LIM: AN‘ANA, TAJRIBA VA
INNOVATSIYALAR**

Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

7-октябрь, 2021 йил

Toshkent - 2021

jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha barchasining eng muhim jihatlarni shakllantirishda o'yinlar beqiyos ahamiyatga ega.

Bolaning jismoniy rivojlanishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyiq bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ikkinchidan, bola harakatning murakkab ko'nikmalarini o'yin asosida o'zlashtiradi. Bu esa uning jismoniy faolligiga ta'sir ko'rsatib, bolaning jismonan sog'lom o'sishiga imkon yaratadi. Mazkur fikrlarga men ta'limning dastlabki bosqichlarida umumiy va maxsus adabiyotlarni o'rganish asosida kelgan bo'lsam, o'qishning keyingi davrlarida, ya'ni pedagogik amaliyot davrida bu fikrlarni amaliy jihatdan tahlil qilishga muvaffaq bo'ldim.

Biz kar bolalar pedagogikasi va psixologiyasi fanlaridan olgan nazariy bilimlarni kar bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasasida amaliy jihatdan mustahkamlash jarayonida kar bolalarning o'yin faoliyati va o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish asosida o'rgandik.

Biz bu bolalarning dars jarayonidagi va darsdan tashqaridagi o'yin faoliyatini kuzatdik. Biroq kuzatishning o'zi bilimlarni mustahkamlash uchun yetarli emas. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari bilan suhbat olib borildi. Bu bolalarning o'yin faoliyatini tahlil qilish asosida olib borilgan suhbat jarayonida maktab internati tarbiyachilari quyidagi fikrlarni bildirdilar:

Barcha bolalar kabi kar bolalarda ham ilk maktabgacha yoshida o'yinchoqlarga qiziqish kuchli bo'ladi. Bir oz vaqt o'tishi bilan bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishida bir oz o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu o'zgarishlar kar bolalaryaing o'yin va o'yinchoqlarga bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Ko'pchilik kar bolalarning ota-onalari farzandlarining o'yinchoqdan tez ko'ngli qolishini, ularni yangilab turishga, aksariyat ota-onalar bolalarining yangi o'yinchoqlargagina qiziqishini, ayrim ota-onalar esa farzandlarining o'yinchoqlardan ko'ra ko'proq ro'zg'orda ishlatiladigan buyumlar turli qopqoqlar, taqsimchalar, chelakcha va boshqalarga qiziqishini aytadilar. Buning sababi, birinchidan, ro'zg'or buyumlarining jarangliroq ovoz chiqarishda bo'lsa, ikkinchidan, bu buyumlar bola muhitiga yaqinligida va ular bilan narsalarga xos bo'lgan bir xildagi xatti-harakatlarni bajarish mumkinligidadir.

O'yin faoliyati jarayonida bolalar turli xildagi predmetli harakatlarni bajarishlarini kuzatdik ya'ni, turli xildagi predmet yoki jonli obrazlarni ifodalovchi o'yinchoqlar bilan o'ynash jarayonida ular mazkur o'yinchoqlarga mos harakatlarni bajarib berdilar. Masalan: mashinachalar bilan o'ynash asosida bolalar mashinani yurgizish uchun emaklab yurdilar, qo'g'irchoqlar bilan o'ynash orqali uni kiyintirish, uxlatish, ovqatlantirish kabi vazifalarni bajaradilar.

Kuzatishlar asosida tarbiyachi va amaliyot rahbarimiz bilan birgalikda quyidagi xulosaga keldik, o'yin faoliyatiga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qiziqish bolalarning aqliy faolligini oshiradi, fao'liyatini rivojlantiradi.

Ma'lumki, har bir o'yinda bolalar nutqiy muomalaga kirishadilarlar bolalardan nutqiy muloqot, jismoniy follik, ijodiy qobliyatini talab etadi.

O'yin tortinchoq bolalarni ham faollashtirishiga yordam beradi.

O'yinlar uyda bajariladigan turli xildagi harakatlar bolalarning jismoniy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, kar bolalar mayda qo'l matorikasining rivojlanishiga, bu esa o'z navbatida kar bolalar nutqiy matorikasining faollashuviga yordam beradi.

Aksariyat harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishga yordam beradi. Harakatli o'yinlarning barchasida uyg'un, ritmik harakatlar tarbiyalanadi. Nutqning ravon, ifodali, samarali bo'lishiga erishiladi. To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolada estetik didni tarbiyalaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'yin faoliyati kar bolalar ruhiy, jismoniy va estetik kamolotida muhim tarbiyalovchi vosita hisoblanar ekan. Shunday ekan, keling barchamiz farzandlarimizning o'yin faoliyatiga loqayd bo'lmay, aksincha, ilk davrlardanoq ularning ta'limlarini kerakli o'yin turlariga jalb etib, faoliyatlarini to'g'ri va samarali yo'naltirishga harakat qilaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muzaffarova, X. (2020). Maxsus maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xosligi . *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(81)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6727

2. Muzaffarova, X. (2020). Eshitishida nuqsoni bor o'quvchilar igaarifmetikamallarnibajarishdaaxborotxnologiyalaridanfoydalanishusullari. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(81)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6750

3. Akramova, X. (2020). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16)*, 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994

INKLYUZIV TA'LIM – BARCHA UCHUN MO'LJALLANGAN TA'LIM

*Muzaffarova X.N., A.Qodiriy nomidagi JDPI
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Tursunqulova O., TDPU 2-kurs magistranti*

Annotasiya

Maqolada inklyuziv ta'limni joriy etish, rivojlantirish hamda bolalar, ot-onalar, pedagog xodimlar va jamoatchilikni ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash orqali bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o'quv muhitini yaratish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается внедрение и развитие инклюзивного образования и создание безопасной инклюзивной учебной среды для детей

посредством социально-психологической подготовки детей, родителей, педагогов и общественности, защиты прав и интересов лиц с ограниченными возможностями.

Annotation

The article discusses the introduction and development of inclusive education and the creation of a safe inclusive learning environment for children through the socio-psychological training of children, parents, teachers and the public, protection of the rights and interests of persons with disabilities.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz. Ushbu tashabbus mazmun-mohiyati haqida targ‘ibot ishlarini izchil yo‘lga qo‘yish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalarida parlament nazoratini kuchaytirish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi qaroriga asosan O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilish belgilangan.

Qarorda xalq ta‘limi tizimida kasb-hunarga yo‘naltirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish mexanizmini yanada takomillashtirish, kasb-hunarga yo‘naltirishning ilg‘or tajribalarga asoslangan zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish, inklyuziv ta‘limni joriy etish, rivojlantirish hamda bolalar, ota-onalar, pedagog xodimlar va jamoatchilikni ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash orqali bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o‘quv muhitini yaratish ko‘zda tutilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liq soha.

Inklyuziv ta‘lim rasmiy ta‘lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta‘limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv maktab o‘qituvchisi va inklyuziv bog‘chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak?

Inklyuziv ta‘limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o‘qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo‘lishi va ta‘lim sifati ma‘suliyatini o‘z zimmasiga olishi shart. Ma‘lumki, inklyuziv ta‘limda maxsus ta‘lim ehtiyojidadagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma‘lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta‘lim aqliy, jismoniy tashqi ko‘rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta‘lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘ra belgilanadi.

Yana bir sifat – hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Chunki o‘qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhimdir. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tizimli

baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamroqli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak.

Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi.

Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi.

Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

2020 yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bunga misol bo'la oladi. Unga ko'ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi. Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch sinflar ochiladi.

Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan guruhlar tashkil etiladi.

Shuningdek, 2021-2022 o'quv yilida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida majburiy o'rta ta'lim 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonli bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab internatlarda 9 yillik muddatlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, ularni kasbga o'qitish kurslari tashkil etilib, bitiruvchilarga sertifikat beriladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konventsiyani ratifikatsiya qilishga har tomonlama sharoit yaratilmoqda. Inklyuziv ta'limni butun mamlakat bo'ylab rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori

2. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674

Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim – yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 5(1). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/602

ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI OLIB BORISHNING KORREKSION XUSUSIYATLARI

*Muzaffarova X.N., A.Qodiriy nomidagi JDPI
Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi
Nishonova D., TDPU 1-kurs magistranti*

Annotasiya

Maqolada maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya ishlaridan tashqari doimiy ravishda nuqsonlarni tuzatish, bir analizatorning faoliyatini boshqa analizator zimmasiga yuklash, moslashtirish ishlari olib borilishi, bolalarni mustaqil hayot kechirishlari uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish qo'ldan keladigan biror kasb-hunarga oid malakalarni o'rgatish kabi fikrlar bilan tanishishimiz mumkin.

Аннотация

В статье обсуждается воспитательной работы в специальных учреждениях необходимость постоянно исправлять недостатки, передавать работу одного аналитика другому, адаптировать и вооружать детей знаниями, навыками и умениями, необходимыми для самостоятельной жизни.

Annotation

The article discusses the educational work in special institutions, the need to constantly correct shortcomings, transfer the work of one analyst to another, adapt and equip children with the knowledge, skills and abilities necessary for an independent life.

Mamlakatimizda barcha sohalarning, ayniqsa, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning dunyoga kelishi, Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi muallim va ustozlar zimmasiga yuksak vazifalar yukladi. Yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi ham yosh avlodni, ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir. Yurtboshimiz: "Barkamol avlod kelajak poydevoridir" – deya bejiz aytmagan. Chunki shaxs kelajak rivojiga keskin ta'sir eta oladi.